

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARI AKADEMIYASI

“Globallashuv sharoitida mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy tendensiyalari” mavzusida V-xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyani o’tkazish

AXBOROT XATI

Xalqaro anjumanda ishtirok etish uchun YeXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari (*kelishilgan holda*), mamlakatimizdagi oliy (harbiy) ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari rahbarlari va mutaxassislari, YeXHTga a’zo davlatlar delegatsiyalarining rahbarlari, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi va kiber jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bilan shug’ullanuvchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, shuningdek, siyosatshunos olimlar, ilmiy-tadqiqot tuzilmalari vakillari taklif etiladi.

Konferensiya **2023-yil 29-noyabr kuni** soat **10⁰⁰** da O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining anjumanlar zalida bo‘lib o‘tadi. Ishtirokchilarni ro‘yxatga olish soat **09⁰⁰** dan boshlanadi.

Konferensiyada globallashuv sharoitida xavfsizlik va birgalikda olib boriladigan rivojlanish sohasida mintaqaviy hamkorlikning joriy va yangi tendensiyalari hamda istiqbollari haqida ilmiy-nazariy mulohazalar, bahs va munozaralar yuritish muhiti yaratiladi.

Konferensiyaning ishchi tillari: o‘zbek, rus va ingliz tillari.

Anjumanda ishtirok etishga buyurtma, ma’ruza mavzulari (1-ilova), ilmiy ma’ruzaning matnli va elektron shakllarini **2023-yilning 16-noyabriga** qadar Qurolli Kuchlar Akademiyasining elektron pochta (**so-akadvs@exat.uz, akaduz@umail.uz**) orqali ro‘yxatdan o‘tkazish uchun yuborilishi so‘raladi.

Ilmiy maqolalar ochiq bo‘lib, Microsoft Word matn muharririda (.docx, .RTF) formatda bo‘lishi lozim. Maqolaning yuqori qismida muallifning ismi, sharifi, otasining ismi, ish (o‘qish) joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni ko‘rsatiladi (ilmiy ma’ruza va maqolalarni rasmiylashtirish qoidalari 2-ilovada berilgan).

Tahririyat hay’ati taqdim etilgan materiallarni tanlab olish va tahrir qilish huquqiga ega. Anjuman mavzusiga to‘g‘ri kelmaydigan yoki ilmiy maqolalarni rasmiylashtirishda xatolikka yo‘l qo‘yilgan va originallik darajasi 60% dan past bo‘lgan materiallar nashr etilmaydi va qaytarib berilmaydi.

Aloqa uchun ma’lumot: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi 100052, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek tumani, Parkent-21 ko‘chasi, Qurolli Kuchlar Akademiyasi Ilmiy ishlar va innovatsiyalarni tashkil etish bo‘limi (+998 71-289-95-41; +998 71-289-97-89).

ILMIY MAQOLA VA TEZISLARNI QABUL QILISH TALABLARI

1. Ilmiy maqolaning mazmuni globallashtirish sharoitida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tendensiyalarini, XXI asrda mintaqaviy mojarolarning oldini olish, mahalliyashtirish va kuchayishining zamonaviy mexanizmlarini, texnologik taraqqiyotni hisobga olgan holda ularning oldini olish va mojarodan keyingi tartibga solishda Qurolli Kuchlarning roli va o'rnini, mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi davlat chegaralariga daxl soluvchi turli unsurlar va transchegaraviy (odam savdosi, kiber va boshqalar) jinoyatchilik sohasidagi siyosiy va ijtimoiy qarashlarni ilgari surishi zarur.

2. Ilmiy maqola va tezislar imlo va mazmun jihatdan tahrir qilingan va rasmiylashtirish bo'yicha quyidagi texnik talablarga javob berishi lozim:

MS Word matn muharririda;

sahifa – o'lchami A4, kitob ko'rinishida, hamma tarafdin 20 mm.dan qoldirilgan holda;

shrift – Times New Roman, kattaligi (kegl) – 14;

qatorlar orasidagi interval va xatboshi – 1,5;

ilmiy maqolaning qisqacha matni – annotatsiya (Abstract) 30-40 ta so'zdan, kalit so'zlar (Keywords) 8 – 10 ta so'zdan iborat bo'lishi va o'zbek, rus va ingliz tillarida bo'lishi;

ilmiy maqola va tezisning hajmi 5 betdan kam bo'lmasligi, biroq 8 betdan oshmasligi, betlarga raqam qo'yilmaydi;

ilmiy maqola konferensiya mavzusi yo'nalishlari bo'yicha dolzarbligi va avval chop etilmagan bo'lishi;

maqolaning yuqori qismida sahifa o'rtasida ilmiy maqolaning nomi (qalin shrift bilan) beriladi, keying satrda muallifning ismi, sharifi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, ilmiy muassasa va tashkilotning nomi ko'rsatiladi;

mualliflar soni uch kishidan ko'p bo'lmasligi;

maqola matni kirish, ilmiy tadqiqot usullari, tadqiqot natijalari va muhokamasi, xulosa qismi va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lishi;

maqoladagi chizma va rasmlarning nomlari chizma va rasmlarning tagida, jadval nomlari esa ustida beriladi;

jadval, rasm va chizmalarning havolalari matnda beriladi;

foydalanilgan manbalarning havolalari har bir betning oxirida joylashtiriladi.

3. Ilmiy maqola va tezislar 2023-yilning 14-noyabriga qadar elektron ko'rinishda O'R QK Akademiyasining akaduz@umail.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

4. Taqdim etilgan ilmiy maqola va tezislar yuqorida ko'rsatilgan talablarga mos kelishi ekspertiza qilinadi hamda antiplagiat dasturi orqali tekshiriladi. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, talabga mos kelmaydigan materiallar chop etilmaydi va muallifga qaytarib berilmaydi. Ijobiy deb topilgan ilmiy maqola va tezislar chop etish uchun konferensiya materiallari to'plamiga kiritiladi, maqolalarning elektron to'plami O'R QK Akademiyasining "akad.uz" rasmiy saytiga joylashtiriladi. Maqola matnida berilgan ma'lumotlar uchun muallifning shaxsan javobgar hisoblanadi.

“Globallashuv sharoitida mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy tendensiyalari” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya

ISHTIROKCHISINING BUYURTMASI

Ma’ruza nomi	
Familiyasi, ismi, otasining ismi (to’liq)	
Ish, o’qish joyi (to’liq nomi, pochta manzili indeksi bilan)	
Lavozimi, kafedra, bo’lim va boshqa tarkibiy tuzilmaning nomlanishi (to’liq)	
Ilmiy darajasi va ilmiy unvoni (to’liq)	
Muallifning ish/mobil telefoni	
e-mail	
Konferensiyada ishtirok etish shakli (oflayn yoki onlayn)	